

SHAXS TUSHUNCHASI VA UNI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Kulmanova Janar Xidirbayevna
Qoraqalpog'iston Respublikasi
Beruniy tumani 7-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada shaxs tushunchasining psixologik mazmuni, uning individual va ijtimoiy xususiyatlari hamda shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar yoritiladi. Shuningdek, temperament, xarakter, qobiliyat va dunyoqarash kabi psixologik xususiyatlarning mohiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar:Shaxs, psixologiya, temperament, xarakter, qobiliyat, ehtiyoj, dunyoqarash, psixologik xususiyatlar, rivojlanish

KIRISH

Shaxs psixologiya fanining markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Shaxs — bu jamiyatda yashovchi, ongli faoliyat yurituvchi va o'zining individual psixologik xususiyatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi insondir.

Inson tug'ilgan paytda biologik mavjudot sifatida dunyoga keladi, ammo ijtimoiy muhit, ta'lim va tarbiya ta'sirida shaxs sifatida shakllanadi. Shaxs rivojlanishi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Shaxsning psixologik xususiyatlariga temperament, xarakter, qobiliyat, qiziqish, ehtiyoj, iroda va emotsional holatlar kiradi. Ushbu xususiyatlar insonning faoliyati va xulq-atvorida namoyon bo'ladi.

Temperament insonning hissiy reaksiyalari va faoliyat dinamikasini ifodalaydi. U asosan tug'ma biologik xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Xarakter esa insonning barqaror psixologik sifatleri yig'indisidir. U insonning boshqalar bilan munosabati va faoliyatida shakllanadi.

Qobiliyat shaxsning ma'lum faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish imkoniyatini belgilaydi. Ta'lim va mashq jarayonida qobiliyatlar rivojlanib boradi. Shaxsiyatni ta'riflashda insonning o'ziga xosligi tushunchasini ham qo'shishimiz mumkin. Biz odamlarda o'xshashliklarni ko'ramiz, lekin har birimizni boshqalardan ajratib turadigan yagona o'ziga xos xususiyatlarimiz ham mavjud. Shuning uchun, **shaxsni turli vaziyatlarga qarab o'zgarishi mumkin bo'lgan doimiy va noyob xususiyatlar majmuasi** sifatida ta'riflashimiz mumkin. Ammo, hatto bu ta'rifga ham barcha psixologlar birdek yakdil emas. Aniqroq ta'rifga erishish uchun har bir shaxs nazariyotchisi "shaxs" degan tushunchaga qanday ma'no yuklashini ko'rib chiqishimiz kerak. Har bir nazariyotchi shaxsiyatning o'ziga xos talqinini va shaxsiy qarashini taqdim etadi, va ularning qarashi ularning ta'rifiga aylanadi. Shu bois, ushbu kitobning maqsadi — shaxs tushunchasining turli talqinlarini tushunish va bu so'zni turlicha ta'riflash usullarini

o'rganishdir. Shaxsning psixologik xususiyatlari insonning individual jihatlarini, uning xulq-atvori, faoliyati va boshqalar bilan munosabatini belgilovchi muhim omillardir. Ushbu xususiyatlar insonning hayoti davomida shakllanib va rivojlanib boradi.

1. Temperament

Temperament insonning hissiy reaksiyalari, faolligi va harakat tezligini ifodalaydi. U tug'ma xususiyat hisoblanadi va insonning emotsional holatida namoyon bo'ladi. Temperamentning sangvinik, xolerik, flegmatik va melanxolik turlari mavjud.

2. Xarakter

Xarakter insonning barqaror psixologik sifatlari yig'indisi bo'lib, uning xulq-atvori va odatlarida namoyon bo'ladi. Xarakter tarbiya, muhit va hayotiy tajriba ta'sirida shakllanadi.

3. Qobiliyat

Qobiliyat insonning ma'lum faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish imkoniyatidir. Qobiliyatlar tug'ma imkoniyatlar asosida rivojlanadi va ta'lim hamda mashq jarayonida takomillashadi.

4. Qiziqish

Qiziqish insonning muayyan faoliyat yoki sohaga bo'lgan ijobiy munosabati va intilishidir. Qiziqish motivatsiyani kuchaytiradi va faoliyat samaradorligini oshiradi.

5. Ehtiyoj

Ehtiyoj insonning ichki talab va zaruriyatlarini ifodalaydi. U inson faoliyatining asosiy harakatlantiruvchi omili hisoblanadi.

6. Iroda

Iroda insonning qiyinchiliklarni yenga olish, maqsad sari intilish va o'z xatti-harakatlarini boshqara olish qobiliyatidir.

7. Emotsional xususiyatlar

Insonning his-tuyg'ulari, kayfiyati va emotsional reaksiyalari uning emotsional xususiyatlarini tashkil etadi. Emotsional barqarorlik shaxs kamolotida muhim ahamiyatga ega.

8. Dunyoqarash

Dunyoqarash insonning hayotga, jamiyatga va o'ziga bo'lgan qarashlari tizimidir. U insonning maqsadi, qadriyatlarini va hayotiy pozitsiyasini belgilaydi. Shaxsning dunyoqarashi ham muhim psixologik xususiyatlardan biridir. Dunyoqarash insonning hayotga, jamiyatga va o'ziga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Psixologiyada shaxs rivojlanishiga irsiyat, muhit va tarbiya asosiy omillar sifatida qaraladi. Oila muhiti va ta'lim jarayoni shaxs kamolotida katta ahamiyatga ega.

Lev Vygotskiy shaxs rivojlanishini ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda tushuntirgan. Uning fikricha, insonning psixik rivojlanishi muloqot va ta'lim jarayonida shakllanadi.

Shuningdek, Aleksey Leontev faoliyat nazariyasi orqali shaxsning rivojlanishida faoliyatning muhim rolini ta'kidlagan. Shaxs va uning psixologik xususiyatlari inson hayoti davomida shakllanib boradi. Shaxs rivojlanishida biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o'zaro chambarchas bog'liqdir. Shaxs insonning jamiyatdagi o'rni, xulq-atvori, dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi murakkab tushunchadir. Psixologiya fanida shaxs masalasi eng muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Chunki insonning ruhiy rivojlanishi, jamiyatdagi faoliyati va ma'naviy kamoloti aynan shaxs tushunchasi bilan bog'liqdir. Shaxs — alohida inson bo'lib, ijtimoiy-axloqiy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan individ hisoblanadi. Har bir inson biologik mavjudot sifatida dunyoga keladi, ammo u tarbiya, ta'lim va ijtimoiy muhit ta'sirida shaxs sifatida shakllanadi.

Psixologiyada “individ” tushunchasi ham qo'llaniladi. Individ — bu mustaqil yashovchi tirik mavjudot bo'lib, insonning biologik tomonini ifodalaydi. Shaxs esa insonning ijtimoiy jihatdan shakllangan qiyofasidir.

Shaxsning rivojlanishi bir qator omillar ta'sirida yuz beradi:

- biologik omillar (nasl);
- tabiiy muhit;
- ijtimoiy muhit;
- madaniy muhit;
- tarbiya va ta'lim;
- shaxslararo munosabatlar.

Mazkur omillar insonning xarakteri, dunyoqarashi, qiziqishi va ijtimoiy faolligini shakllantiradi. Shaxs jamiyatdan tashqarida rivojlana olmaydi. Insonning fikrlashi, muomalasi, xulqi va ma'naviy qadriyatlari ijtimoiy muhit orqali shakllanadi. Shaxsning jamiyatdagi mavqei uning faoliyati, bilimi, kasbi va insoniy fazilatlariga bog'liq bo'ladi.

Ijtimoiy mavqe ikki turga bo'linadi:

- belgilangan mavqe;
- erishilgan mavqe.

Belgilangan mavqe inson tug'ilishi bilan bog'liq bo'lsa, erishilgan mavqe uning mehnati, qobiliyati va intilishi natijasida qo'lga kiritiladi. Har bir shaxs jamiyatda ma'lum ijtimoiy rolni bajaradi. Masalan, o'qituvchi, shifokor, ota-ona, rahbar yoki talaba kabi rollar insonning jamiyatdagi faoliyatini belgilaydi. Shaxsning ijtimoiy roli uning jamiyatdagi o'rni va vazifalarini namoyon etadi. Sharq mutafakkirlari shaxsning ma'naviy kamolotiga alohida e'tibor berganlar. Ular insonning ruhiy poklanishi, axloqiy tarbiyasi va jamoa bilan uyg'un yashashini muhim deb hisoblaganlar. Abu Mansur al-Moturidiy shaxsning erkin fikrlashi, o'z xatti-harakatlari uchun mas'ul ekanligini ta'kidlagan. U insonning yaxshi va yomon yo'lni o'z irodasi bilan tanlashini asoslab bergan.

Shaxsning ijtimoiy faolligi uning jamiyat hayotidagi ishtiroki bilan belgilanadi.

Faol inson:

- tashabbuskor bo'ladi;
- mustaqil fikrlaydi;
- jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadi;
- mas'uliyatni his qiladi.

Ijtimoiy faollik shaxsning yetuklik darajasini ko'rsatadigan muhim omillardan biridir.

XULOSA

Shaxs insonning biologik, psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini o'zida birlashtirgan murakkab tushunchadir. Shaxsning shakllanishida ta'lim, tarbiya, ijtimoiy muhit va ma'naviy qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Barkamol shaxsni tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vygotskiy L. S. Psixologiya rivojlanishi. — Moskva: Eksmo, 2005.
2. Piaget J. Child Psychology. — New York: Basic Books, 1972.
3. Bojovich L. I. Shaxs va uning bolalik davrida shakllanishi. — Moskva: Prosveshchenie, 1968.
4. G'oziyev E. G'. Umumiy psixologiya. — Toshkent: Universitet, 2008.
5. Karimova V. M. Psixologiya. — Toshkent: O'qituvchi, 2010.
6. Raykov A. N. Psixodiagnostika asoslari. — Moskva: Vlados, 2012.
7. Ananov B. G. Inson psixologiyasi. — Moskva: Nauka, 1977.